

ISSN 2181-7324



# O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

# XABARLARI

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR  
YO'NALISHI

ВЕСТНИК НУУЗ

АСТА НУУЗ



# O'ZMU XABARLARI

## ВЕСТНИК НУУЗ

### АКТА NUUZ

#### MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL  
1997 YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN**

**2024  
1/10/1**

**Ijtimoiy-  
gumanitar  
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

**ERGASHOV Y.S.** – f-m.f.d., professor.

**SHIRINOVA R.X.** – fil.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.

**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.

**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.

**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.

**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.

**Yunusova X.E.** – t.f.d., prof.

**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.

**Mo'minov A.G.** – s.f.d., prof.

**Abdulayeva N.B.** – f.f.d., prof.

**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.

**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.

**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.

**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.

**Boltaboyev H.** – fil.f.d., prof.

**Rahmonov N.A.** – fil.f.d., prof.

**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.

**Sa'dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.

**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

**TOSHKENT – 2024**

## MUNDARIJA

### Tarix

|                                                                                                                                            |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Barotov S.</b> Ashtarxoniyar davrida Buxoro xonligining rossiya bilan savdo aloqalari .....                                             | 4  |
| <b>Karimov E.</b> XX asr 70-yillari oxiri – 80-yillari boshlarida Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi (arxiv ma'lumotlari asosida)..... | 7  |
| <b>Mirzoxaximov A.</b> Toshbosma kitoblarni tayyorlash texnikasi, tarkibiy qismlari, badiiy bezaklari tarixi.....                          | 10 |
| <b>Nabiyev E.</b> O'zbekiston Rossiya iqtisodiy-siyosiy aloqalari .....                                                                    | 12 |
| <b>Nurov A.</b> XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida yer egaligi bilan bog'liq soliq tizimi .....          | 14 |
| <b>Razzoqova Sh.</b> Mustaqillik yillarida xotin-qizlar o'rtasida ishsizlikning oldini olish choralari (1991-2024 yillar) .....            | 17 |
| <b>Xalilov F.</b> О Мирзо Улугбеке и других среднеазиатских учёных, внёсших большой вклад в развитие астрономии .....                      | 19 |
| <b>Shomansurova Z.</b> XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya va Sin imperiyalari o'rtasidagi chegara muammolariga doir mulohazalar .....    | 22 |

### Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

|                                                                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Абдусаттарова С.</b> Человек, общество, модель: точки соприкосновения .....                                                                                                             | 25  |
| <b>Abdullayeva S.</b> Methodological approaches to fostering oral communication skills in cadet training programs .....                                                                    | 28  |
| <b>Abdunazarova Z.</b> Botanika fanlarini o'qitishda integratsiyaga asoslangan darsni tashkil etishning dolzarbligi .....                                                                  | 30  |
| <b>Adilova Sh.</b> Shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari .....                                                      | 32  |
| <b>Alisherova Z.</b> Emotsional intellekt – o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini psixologik omillari .....                                                                       | 35  |
| <b>Allayarov O.</b> "Globallashuv jarayonida internet texnologiyalarining yoshlar ma'naviy-ahloqiy ta'lim-tarbiyasidagi o'rni" .....                                                       | 38  |
| <b>Allayarova Z.</b> O'zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini ko'tarish dialektikasining ijtimoiy-falsafiy mezonlari .....                                               | 41  |
| <b>Axmedova D.</b> Методы выявления когнитивно одаренных детей в современной психологической науке .....                                                                                   | 43  |
| <b>Axmedova D.</b> Migratsiya davrida insonning ruhiy jarohati: sabablar va oqibatlar .....                                                                                                | 46  |
| <b>Axmedova D.</b> Bo'lajak tibbiyot xodimlariga ingliz tilini intellektual o'qitishda innovatsion yondashuvlarni takomillashtirish .....                                                  | 49  |
| <b>Axmedova S.</b> Ta'lim jarayonini tashkil etishda integratsion yondashuvning pedagogik ahamiyati .....                                                                                  | 52  |
| <b>Ahmadjonov M.</b> Axborotlashgan jamiyatda moliyaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirishda oavnlarning ta'siri .....                                                              | 55  |
| <b>Ashurova D.</b> Barkamol avlodni tarbiyalashda Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlarining o'rni .....                                                                              | 57  |
| <b>Berdiyeva G.</b> Pedagogik jamoadagi bulling: ijtimoiy-psixologik tahlil .....                                                                                                          | 59  |
| <b>Bobojonova I.</b> Maktabda ingliz tilini o'qitishda blum taksonomiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                                | 61  |
| <b>Boboqulova X.</b> Fuqarolik jamiyati qurish tarixini manbashunoslik asoslari .....                                                                                                      | 63  |
| <b>Boyxonov Sh.</b> Davlat hokimiyati tizimida xavfsizlikni ta'minlashda parlament nazorati (deputatlik so'rovi)ning ahamiyati (rossiya federatsiyasining parlamenti misolida).....        | 66  |
| <b>Botirova Z.</b> Professional competence of english teachers: an in-depth analysis .....                                                                                                 | 68  |
| <b>Botirova Z.</b> Kontekstli yondashuv asosida talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatini modellashtirish mazmuni .....                                                                       | 70  |
| <b>Burxonov I.</b> A.O'rinboev hayoti va ilmiy ijodiga nazar .....                                                                                                                         | 73  |
| <b>Dehqonov R.</b> Barkamol avlod tarbiyasida qo'g'irchoq teatrining o'rni .....                                                                                                           | 75  |
| <b>Donayev S.</b> Ta'lim sifatini boshqarishning davlat-jamoat modeli .....                                                                                                                | 77  |
| <b>Doniyorov M.</b> Pisa, pirls, timss xalqaro baholash tadqiqotlari va uni o'ziga xos tomonlari .....                                                                                     | 80  |
| <b>Jabborova D.</b> Enhancing esp students' writing competence: obstacles and solutions .....                                                                                              | 83  |
| <b>Jamoliddinova N.</b> Kasbiy so'nishning psixologik xususiyatlari .....                                                                                                                  | 85  |
| <b>Jumaniyozova M.</b> Modern methods for developing creative communicative competencies in 10th-11th grade students .....                                                                 | 88  |
| <b>Jumaniyazova I.</b> Perfeksionizmning subyektiv farovonlikka ta'siri nazariy-amaliy asoslari.....                                                                                       | 90  |
| <b>Ibragimov A.</b> Maktab o'qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion shakli (superviziya misolida) .....                                                               | 93  |
| <b>Ibragimova N.</b> Совершенствование социолингвистической компетенции у учащихся esl: методы и практические подходы .....                                                                | 95  |
| <b>Inayatov J.</b> Yoshlari ma'naviyatini yuksaltirishda fotografik manbalarining .....                                                                                                    | 98  |
| <b>Irgashev Z.</b> Harbiy xizmatchilarda stress psixodiagnostikasi va psixokorreksiya .....                                                                                                | 101 |
| <b>Ixlasova I.</b> Nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)da kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasi bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalari tahlili .....                      | 104 |
| <b>Yo'ldoshev M.</b> Texnika oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishda oliy ta'lim standartlarining o'rni .....                                      | 107 |
| <b>Kamoliddinova D.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining rivojlantiruvchi o'yin muhitini yaratish jarayonidagi faoliyatini psixologik jihatlari .....                           | 110 |
| <b>Kamolov I.</b> Kreativ loyihalashni faollashtirish orqali rivojlantirish konsepsiyasi .....                                                                                             | 113 |
| <b>Kerimbayeva N.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari mazmuni va mohiyati .....                                                   | 116 |
| <b>Korayeva L.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga qiziqishning pedagogik va psixologik xususiyatlari .....                                                             | 119 |
| <b>Kushaeva N.</b> Central Asian countries and the gulf cooperation council: synergy of strategic potentials .....                                                                         | 122 |
| <b>Qambarova D.</b> Xorijiy til o'qituvchilarida mediamadaniyatga oid bilimlarni rivojlantirish mexanizmlari .....                                                                         | 125 |
| <b>Madrahimov A.</b> Maktablardagi zo'ravonlik (bullying) hodisasining tuzilmaviy tahlili.....                                                                                             | 127 |
| <b>Majitov M.</b> Shaxs va ijtimoiy fanlar dialektikasi .....                                                                                                                              | 130 |
| <b>Mamatkulov D.</b> «Yumshoq kuch» xarakteridagi mafkuraviy tahdidlar: «ommaviy madaniyat» va «overton tuynigi» konsepsiyasi .....                                                        | 132 |
| <b>Махсумов И.</b> Развитие общей ловкости юных футболистов на этапе начального обучения .....                                                                                             | 135 |
| <b>Mirzaxmedov A., O'rinov O.</b> Yoshlarda dindorlik omili .....                                                                                                                          | 138 |
| <b>Muydinov D.</b> Yevropa ittifoqi xavfsizligi va siyosiy jarayonlariga migratsiyaning ta'siri .....                                                                                      | 141 |
| <b>Muminov M.</b> Globallashuv sharoitida O'zbekistonda milliy kontentning o'rni .....                                                                                                     | 143 |
| <b>Mustafayev Sh.</b> Artpedagogika tushunchasining obyektiv mazmun-mohiyati va maqsadli yo'nalishlari .....                                                                               | 146 |
| <b>Muxammadiyeva X.</b> Bo'lajak o'qituvchilarda psixologik kompetentlikni rivojlantirish .....                                                                                            | 149 |
| <b>Nasrullayeva A.</b> Turmush qurish arafasidagi yoshlarda ijtimoiy fobiya shakllanishi va ularni aniqlilik darajasining psixologik xususiyatlari .....                                   | 152 |
| <b>Nekboye X.</b> Bo'lajak muhandislarni kasbga tayyorlashda media ta'limning kommunikativ komponentligini rivojlantirishning nazariyasi va metodikasi .....                               | 155 |
| <b>Normatov J.</b> Raqamli tibbiy ta'limda klinik fanlaridan revmatizm kasalligini o'qitishda talabalarining metodik tayorgarligini takomillashtirish mexanizmlari .....                   | 157 |
| <b>Oripov E.</b> The dialectic of traditional and modern values: the interaction between social and cultural change .....                                                                  | 161 |
| <b>Ochilov A.</b> Korruptsiya madaniy-ma'naviy islohotlar sifatida .....                                                                                                                   | 164 |
| <b>Patiyev X.</b> Jadid ma'rifatparvarlari qarashlarida farzand tarbiyasining ijtimoiy-falsafiy tasnifi.....                                                                               | 166 |
| <b>Рахимов В.</b> Маркетинговые коммуникации и стратегии стимулирования продаж в спортивной индустрии: международный опыт и перспективы развития в узбекистане .....                       | 169 |
| <b>Raximov F.</b> Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida bolalar iqtidorini rivojlantirishda ichki boshqarish modelining samarali faoliyat yuritishi uchun pedaogik shart-sharoitlar ..... | 172 |

|                                                                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Rahmatov O.</b> “Социально-философские взгляды и подходы к социальным конфликтам” .....                                                                                                    | 175 |
| <b>Rahmonov U.</b> Maktab o'quvchilariga tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitish metodikasi .....                                                                                     | 178 |
| <b>Rahmonova S.</b> O'zbekistonda ma'naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo'li va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....                                                                   | 181 |
| <b>Ro'zimurodov S.</b> Yoshlarda sog'lom turmush tarzi rivojlanishida milliy va dunyoviy qadriyatlarni uyg'unlashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlil .....                                    | 184 |
| <b>Ruzmetova Z.</b> Anxiety levels of students in the process of learning foreign languages .....                                                                                             | 187 |
| <b>Saipova M.</b> Mehnat migrantlari bo'lgan va bo'lmagan oilalarda oilaviy xavotirni o'rganish natijalari.....                                                                               | 190 |
| <b>Saurov R.</b> Fransuz faylasuflarining hokimiyatning bo'linishi prinsipi to'g'risidagi fikr-mulohazalari .....                                                                             | 193 |
| <b>Sidikova M.</b> Imom abu mansur motrudining ilmiy-ma'naviy merosi va uning islom tamaddunida tutgan o'rni.....                                                                             | 195 |
| <b>Sodikov U., Bozarova D.</b> Ta'lim jarayonida interfaol metodlar va ularga qo'yiladigan talablar .....                                                                                     | 198 |
| <b>Sulaymanova B.</b> Formation of reading and writing skills in the development of speaking competences of primary class students .....                                                      | 201 |
| <b>Toshev O.</b> Ijtimoiy konfliktlar haqidagi ta'limotlar tahlili.....                                                                                                                       | 203 |
| <b>Toshmatov O.</b> The role of mobile apps in learning legal english: the foreign experience .....                                                                                           | 205 |
| <b>Toshmatova S.</b> Exploring individual-psychological approaches to enhance motivation among efl students .....                                                                             | 208 |
| <b>Турсахатов Э.</b> Специфика использования художественного произведения в учебном процессе .....                                                                                            | 210 |
| <b>Tuxtayev S.</b> Talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish kontseptual modelining tarkibiy qismlari .....                                                                  | 213 |
| <b>Uzoqova G.</b> Milliy yuksalish davrida ma'naviyat tiklanishi: tarixiy ildizlar va zamonaviy taraqqiyot .....                                                                              | 216 |
| <b>Umirzoqova S.</b> Zamonaviy yondashuvlar va ta'limda o'quvchilarni motivatsiya qilish .....                                                                                                | 219 |
| <b>Umirov I.</b> Bilingvizm – jamiyat rivojlanishining muhim sotsiologik omili sifatida .....                                                                                                 | 221 |
| <b>Фаизова Ф.</b> Особенности в коммуникативном поведении представителей разных культур в условиях межкультурного общения .....                                                               | 224 |
| <b>Xaitov A.</b> O'smir futbolchilarni irodaviy tayyorgarligi jaryonida xavotir holatini me'yorlashtirish orqali psixik barqarorlik va irodaviy sifatlar rivojlanishini amalga oshirish ..... | 227 |
| <b>Khayitmurodova Y.</b> Students' or future specialists' attention to a foreign language in the development of the english language .....                                                    | 230 |
| <b>Xasanov X.</b> Mediasavodxonlik va unga yo'naltirilgan ta'limning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli .....                                                                               | 232 |
| <b>Xodjaeva O.</b> Nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarda korreksion-reabilitatsion ishlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari .....                                  | 234 |
| <b>Xolmirmirzayev E.</b> “Tarix” fanini o'qitishda talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari .....                                                                           | 236 |
| <b>Хосилова Ф.</b> Применение информационно-коммуникационных технологий в обучении филолога.....                                                                                              | 239 |
| <b>Xudayberganov K.</b> Kursantlarni komil inson ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ahloqiy fanlarning o'rni .....                                                                                 | 242 |
| <b>Xudayberdiyeva S.</b> Sharq mutafakkirlari hamda O'zbekiston olimlarining oila barqarorligiga oilaviy hayot siklidagi qarashlari .....                                                     | 245 |
| <b>Xo'jaqulov A.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda qadriyatli munosabatlar orqali pedagog-tarbiyachi hamda oila va tarbiyalanuvchilar o'rtasida hamkorlik .....                           | 248 |
| <b>Haqberdiyev B.</b> Texnik va san'at fanlarida: integratsiya, sinergetika, kompetensiya .....                                                                                               | 250 |
| <b>Shukurova D.</b> Inklyuziv ta'lim samaradorligini baholash mezonlari .....                                                                                                                 | 253 |
| <b>Elliyev H.</b> O'quvchilar bilimini baholash ilmiy pedagogik muammo sifatida .....                                                                                                         | 255 |
| <b>Ergasheva G.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarning nutqiy kompetensiyalari baholashning o'ziga xosliklari .....                                                        | 258 |
| <b>Erkinov I.</b> Jamiyat barqaror taraqqiyotida fuqarolar siyosiy ishtirokini takomillashtirish mexanizmlari .....                                                                           | 260 |
| <b>Ernazarov Z.</b> Oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarishda axborot-kognitiv yondashuvning pedagogik salohiyati .....                                                                     | 263 |
| <b>Eshnazarova F.</b> Sportchilarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirishda murabbiyning vazifalari .....                                                                              | 265 |
| <b>Yakubov B.</b> O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonida davlat boshqaruviga yangi yondashuvlar masalalari .....                                               | 267 |
| <b>Yarmanov F.</b> Fransuz tilini o'qitishning interfaol usullari .....                                                                                                                       | 270 |
| <b>Filologiya</b>                                                                                                                                                                             |     |
| <b>Abdurahmanova S.</b> Shevalar korpusini yaratishning nazariy asoslari (o'zbek korpus lingvistikasining shakllanishi va taraqqiyoti) ....                                                   | 273 |
| <b>Abdurashidova K.</b> O'zbek va Ingliz xalq afsonalarining janr xususiyatlari va tasnifi.....                                                                                               | 276 |
| <b>Aminova N.</b> Multilingualism in a globalized world: challenges and opportunities .....                                                                                                   | 279 |
| <b>Amonova Z.</b> Nemis va O'zbek tilshunosligida fe'llar valentligi bilan bog'liq nazariy qarashlar .....                                                                                    | 281 |
| <b>Байёшанов М.</b> «На руси явилось великое, могучее дарование...» .....                                                                                                                     | 283 |
| <b>Buranova D.</b> Tasdiq va inkor o'rtasida kategorial munosabatlar .....                                                                                                                    | 286 |
| <b>Gaybullayeva X.</b> Tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlari va nazariy yondashuvlari.....                                                                                                  | 288 |
| <b>G'oyibov U.</b> Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar shakllanishining kognitiv mexanizmlari .....                                                     | 291 |
| <b>Iusupova K.</b> Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asarining o'zbek tiliga o'girmasi xususida .....                                                                                     | 294 |
| <b>Qodirova M.</b> Badiiy matnda san'at terminlarining qo'llanilish motivlari va ularning xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida).....                                              | 296 |
| <b>Qurbonova F.</b> O'zbek romanchiligidagi bugungi izlanishlar .....                                                                                                                         | 298 |
| <b>Qo'chqorova D.</b> Viktor Gyugo va uning asarida hikmatli so'zlarning gavdalanishi .....                                                                                                   | 300 |
| <b>Mansurova F.</b> G'arb tilshunosligida ommaviy nutq genezisi tadqiqotining tarixiga nazar: turli yondashuvlar va diaxronik analizlar ...                                                   | 302 |
| <b>Melibayeva S.</b> O'zbek antroponimikasida tabulashish va evfemizatsiya hodisasi.....                                                                                                      | 304 |
| <b>Mirzaaxmedova Y.</b> Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari.....                                                                                                       | 306 |
| <b>Mirzayeva Z.</b> Abdulla Qahhor hikoyalarini yangicha o'qish tajribasi.....                                                                                                                | 309 |
| <b>Mirusmanova Z.</b> The influence of eastern classical poetry on western poets .....                                                                                                        | 312 |
| <b>Omanboyeva A.</b> Tasavvuf tarixi va irfoniy-badiiy adabiyotda zuhd davrining o'rni .....                                                                                                  | 314 |
| <b>Pulatova D.</b> O'zbek tilida murojaat shakllarining hududiy xoslanishi.....                                                                                                               | 318 |
| <b>Salomova G.</b> Tilshunoslikda qisqartmalar va ularning to'liq shakli o'rtasidagi munosabat .....                                                                                          | 321 |
| <b>Temirova H.</b> The impact of vowel synharmony in kipchak dialects on english pronunciation .....                                                                                          | 324 |
| <b>O'roqova N.</b> O'zbek mumtoz adabiyotida faunistik obrazlarning an'anaviyligi .....                                                                                                       | 327 |
| <b>Хажимурадова У.</b> Адаптация заимствованной лексики в текстах английских и русских дипломатических памятников XVI-XVII веков.....                                                         | 329 |
| <b>Xalilova D.</b> Stomatologiya sohasida ingliz tilidagi abbreviaturalarning ishlatilishi.....                                                                                               | 331 |
| <b>Xamzayev S.</b> Chet tillardan o'zlashgan so'zlar va ularning o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri .....                                                  | 333 |
| <b>Xodjiyev Y.</b> Or-nomus tushunchasining leksikografik talqini va badiiy imkoniyatlari .....                                                                                               | 336 |
| <b>Kholboeva D.</b> Diachronic and synchronic approach to the terminology and term(tourism) in linguistics.....                                                                               | 339 |
| <b>Hakimova Z.</b> The structural and semantic analysis of jargons in english and uzbek languages .....                                                                                       | 341 |
| <b>Ergashev A.</b> Rus va o'zbek adabiyoti esselarining badiiy uslub va stilistik mezonlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari .....                                                            | 344 |
| <b>Юлдашева Ф.</b> Русский язык и интернет-коммуникация .....                                                                                                                                 | 346 |



**Nafosat O'ROQOVA,**

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD*

*E-mail: n.y.uroqova@buxdu.uz*

*Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. D.Quvvatova taqrizi asosida*

#### O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAUNISTIK OBRAZLARINING AN'ANAVIYLIGI

Аннотация

Insonlar va hayvonlar o'rtasidagi aloqa qadim-qadimdan mavjud bo'lgan. Taraqqiyot davomida bu ikki yaratilarning bir-biriga ehtiyoji borligi yanada ayonlashdi. Shu bois ular orasidagi zanjir uzilmasdan kelmoqda. Dastlab insonlar hayvonlardan qo'rqib, ularga ilohiy mo'jiza sifatida qaragan bo'lsalar, keyinchalik ularni o'zlarining manfaatlarini yo'lida bo'ysundirdilar. Ilk bor afsona-yu rivoyatlar, miflarda aks etgan faunistik obrazlar sekin-astalik bilan o'zining tadrijiy takomilini topa boshladi. Jahon adabiyotida bo'lgani singari o'zbek mumtoz she'riyatida ham faunistik obrazlarning o'zni beqiyos. Maqolada mazkur masala atroflicha yoritilgan. Faunistik obrazlar ifodalaydigan ma'no qirralari mumtoz shoirlar ijodidan keltirilgan she'riy namunalar orqali dalillangan.

**Kalit so'zlar:** olamning badiiy manzarasi, obraz, faunistik obraz, o'zbek mumtoz lirikasi, g'azal, hayvonlar, it, ot

#### TRADITIONALITY OF FAUNISTIC IMAGES IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE

Аннотация

Communication between humans and animals has existed since ancient times. In the course of development, it became even more clear that these two creatures need each other. Therefore, the chain between them is unbroken. At first, people were afraid of animals and looked at them as divine miracles, but later they subjugated them for their own interests. The faunistic images reflected in the first legends and stories, myths gradually began to find their gradual improvement. As in world literature, the place of faunistic images is incomparable in Uzbek classical poetry. This issue is covered in detail in the article. The aspects of meaning represented by faunistic images are proved by poetic examples from the works of classical poets.

**Key words:** artistic view of the world, image, faunistic image, Uzbek classical lyric, ghazal, animals, dog, horse

#### ТРАДИЦИОННОСТЬ ФАУНИСТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Общение между человеком и животными существовало с древних времен. В ходе развития стало еще более понятно, что эти два существа нужны друг другу. Поэтому цепь между ними неразрывна. Поначалу люди боялись животных и смотрели на них как на божественные чудеса, но позже подчинили их своим интересам. Фаунистические образы, отраженные в первых легендах и сказаниях, мифах постепенно стали находить свое постепенное совершенствование. Как и в мировой литературе, в узбекской классической поэзии бесподобно место фаунистических образов. Подробно этот вопрос рассмотрен в статье. Смысловые аспекты фаунистических образов доказываются поэтическими примерами из произведений поэтов-классиков.

**Ключевые слова:** художественная картинка мира, образ, фаунистический образ, узбекская классическая лирика, газель, животные, собака, лошадь.

**Kirish.** Olamning badiiy manzarasini ifodalashda turli-tuman obrazlar qo'llanadi. Hayvon timsollaridan foydalanish badiiy ijodning ilk davrlaridayoq mavjud bo'lgan. Xalq og'zaki ijodida uning turli yo'nalishlari shakllandi. Bu jarayonning davomi o'laroq, mumtoz she'riyatimizda hayvon obrazlari tizimi har jihatdan boyidi.

Folklor janrlarida kam uchraydigan, u qadar e'tiborni jalb qilmaydigan hayvonlardan it obrazi mumtoz adabiyot namunalarida faollashdi. U yorning eshigida qo'riqchi vazifasini ado etishi bilan o'z mavqeyini oshirdi. Oshiq nazarida, ma'shuqa itga mehribonlik ko'rsatadi, ammo unga parvo qilmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qadimiy manbalar, xususan, Qur'oni Karimda hayvonlarning borliqda o'z o'zni mavjudligi borasida fikrlar uchraydi. Imom G'azzoliyning "Daqoyiqu-l-axbor" asaridan tortib bugungi zamonaviy tadqiqotlargacha hayvonlar va insonlar o'rtasidagi munosabatga diqqat qaratib kelinmoqda. Sh.Ashurovaning "Ingilizabon g'arb adabiyoti va o'zbek adabiyotida animalistika janri xususiyatlari", N.Ochilovning "Ingilizabon g'arb va o'zbek nasrida ot obrazi", L.Mirzohidovning "XI-XII asrlar turkiy adabiyotida majoziy tasvir badiiyati", N.Mo'minovaning "Afsonalar badiiyatida xalqona tarbiya", L.Hasanovaning "Xazoyin ul-ma'niy" kulliyotida it obrazlarining tasvirlanishi tamoyillari" nomli qator tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada faunistik obrazlarning genezisi, badiiyati masalasini tadqiq qilishda qiyosiy tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Atoyi ijodida it obrazi ko'p uchraydi.

Itning har kecha to subhidam eshikta yoturda,

Qani, ki sarbasar etkay gadodin o'zga musohib [3].

Uning mazkur bayti "Musohib" radifli g'azalidan olingan. Musohib [11] so'zining lug'aviy ma'nosi – hamsuhbat, suhbatdosh. Lirik qahramon ma'shuqaga erishishning barcha yo'llarini qidirib ko'radi. Bil'aks, buning uddasidan chiqolmaydi. Shunda uning yodiga yorining iti keladi. Najot topgan misol suyungan oshiq ma'shuqaning qo'riqchisi it bilan do'stlashishga qaror qiladi. It bilan tongga qadar hamsuhbat bo'lishga o'zidan boshqa munosib dildosh ko'rmagan oshiq uchun eng to'g'ri yo'l shu edi.

Mavloni Lutfiyning olti baytli "Mening" radifli g'azalida oshiq yigitning oh-u nolalari tasvirlangan:

Nolishim berdi eshigi itlariga dardi sar,

Afv qilg'aylar karam itlari bu berohim mening [6].

Baytdagi it obrazi ma'shuqaning uyida qo'riqchi. Uning sodiq, vafodor hamrohi. Lirik qahramonning yor uyi oldida chekkan nolishlari shu qadar kuchliki, bundan hatto uning iti ham azob ko'rgan. Shu xatosini sezgan oshiq yorning itiga boshog'riq bo'lgani, ishq dardida haddidan oshib, o'zboshimchalik qilgani uchun ham uni afv etishlarini so'raydi. Boshqa bir g'azalida esa shu itga havasi kelib, uning mansabiga tayinlashlarini tilaydi:

Itlarningning mansabin Lutfiyg'a ta'yin aylakim,

Davlatningda qilsa sultonlig' ne bo'lgay bir gado [6]?

O'zini bir gado sifatida tanib, yor ostonasida bir lahzalik bo'lsa-da, sultonlikni orzu qiladi. Sultonlik nimada ko'rinadi? Bizningcha, bu baxtga ma'shuqa emas, aksincha, it musharraf bo'lgan. Chunki yorning itga e'tibori, mehri bor. Shu o'rinda it obrazi oshiqqa nisbatan qisman raqib holida gavdalangan. Buni his qilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, oshiq ma'shuqasi jamoliga erishish yo'lida har zamon uning iti yordamiga muhtojlik tuygan. Agar undan yordam kelmasa, shu it o'rinda bo'lishni orzu qilgan. Ushbu motiv ko'pgina g'azallarning asos leytmotivini tashkil etgan, degan xulosaga kelish mumkin.



Jahon adabiyotshunosligida mutafakkir Alisher Navoiyning serqirra ijod sohibi, fasohatda tengsiz alloma ekanligi bir necha asrlar davomida yuksak e'tirof etib kelinmoqda. Buyuk san'atkor ijtimoiy hayotning barcha jabhasini qalamga olgan. Bu uning qomusiy olim sifatidagi mavqei yanada oshirgan. So'z erkinligiga erishilgandan boshlab, Navoiy ijodini chuqurroq o'rganish hamda uni tahlil va talqin etishda yangicha yondashuvlar maydonga keldi.

Navoiy lirikasida ham faunistik obrazlarning yuksak namunalari uchun kelamiz. Masalan, "Istasangkim, urg'asen davrong'a tiyg'i inqito..." g'azalining sakkizinchi baytida pand-nasihat ruhi ustuvorlik qiladi. Bunga obraz sifatida tanlangan hayvonlarning ramziylik ifodasi orqali erishilgan:

Besha sherin gar zabun qilsang, shijoatdin emas,

Nafs itin qilsang zabun olamda yo'q sendek shujo [5].

Misradagi "besha" – "o'rmon, to'qay, changalzor" [1]; "zabun" – "yengmoq, mag'lub qilmoq, g'olib bo'lmoq" [1]; "shujo" so'zi esa shijoatli, jasoratli, jasur [1] ma'nolarini anglatadi. Anglashiladiki, ushbu baytda to'qay sherini yengmoq shijoat sanalmaydi, balki asl jasorat bu – nafs itini mag'lub etmoqlikdir, degan badiiy g'oya ilgari surilgan. Bu o'rinda she'r o'z ma'nosida qo'llangan. Nafs iti esa ramziy ma'no tashiydi. Mazkur birikma istiora san'ati asosida yuzaga chiqarilgan.

Inson ma'naviy-axloqiy tarbiyasining bosqichma-bosqich shakllanishida tasavvuf adabiyotining o'rni beqiyos. Asrlar davomida tasavvuf ilmining ahamiyatli ekanligi o'z isbotini topmoqda. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan hamda uning turli darajalari mavjudligi o'rganilgan.

It obrazi insoniyatning ming yillik tarixi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, hozirga qadar o'ziga xos jarayonlardan o'tgan. Masalan, folklor namunalari tarkibida saqlanib qolgan bir qancha ko'hna motivlar, obrazlar "it"ga xalqimiz e'tiqodi tarixining ma'lum bir qatlamlarida ijobiy yoki salbiy obraz sifatida qaratilganligini tasdiqlaydi.

Xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyotda it qator ramziy ma'nolarda kela olishi bilan ajralib turadi. Turli rivoyat va afsonalarda, sehrli-fantastik e'taklarda g'aroyib it obrazlari keltiriladiki, ular bosh qahramonga zarur paytida yordamga kelgan zoomorf ko'makchilar tarzida talqin qilinadi. Buncha bosh qahramon ularning jonini saqlab qolishi motivi keltiriladi. Insonning shu yordamiga javoban ular ham zarur sharoitda bosh qahramonni qo'llab-quvvatlashadi. Bosh qahramonlar ko'pincha ularning yordamida yo sevgan yorini sehdan qutqaradilar, yo biror-bir tilsimli predmetni qo'lga kiritadilar va hokazo.

Mumtoz adabiyotimizda it timsoli ishtirok etgan lirik asarlar ko'p uchraydi. Birgina Navoiy devonlari tarkibida uchraydigan bu jonivor bilan aloqador ko'plab g'azallarni tahlilga tortishimiz mumkin:

Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,

Ittinga g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il [5].

Insoniyat dastlabki xonakilashtirgan, o'ziga o'rgatib olgan jonzorlardan sanaluvchi it va odamlar orasida munosabat ijobiy bo'lib kelgan. It insonning do'sti sifatida talqin etilgan. Ammo itning salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjudligi bois bu xususiyatlar har bir lirik asar namunasida turlicha yoritilgan. "Qilg'il" radifli g'azalda kelgan ushbu bayt atrofida bugungi kun adabiy jarayonida hanuz munozaralar ketmoqda. Adabiyotshunos olimlar hamda so'z ixlosmandlari ushbu baytda qo'llangan it obrazi atrofida bahsga kirishar ekanlar, uning turli so'fiyona ma'nolarini o'rtaga tashlayaptilar. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqul baytda qo'llangan it timsolining dastlab tashqi ma'nosiga to'xtaladi: "Bundagi "it"ning zohiriy ma'nosi – vafo va sadoqatda o'rnatilgan. Chunki an'anaviy tasvirlarga ko'ra, sidqu sadoqat va vafodorlikda oshiq o'zini it bilan (ko'pincha yorning iti bilan) teng ko'radi. Shu g'azalning qiyosiy tahlili bilan maxsus shug'ullangan olimlar professor H.Boltaboyev va N.Jumaxo'ja fikrlariga tayanib, botiniy ma'noda it obrazi misrada nafs ammorani

#### ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Т.: Фан, 1983.
2. Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1994.
3. Девони Шайхзода Атоийи. – Т.: Фан, 2008.
4. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – Т.: O'zbekiston, 2015.
5. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboilar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdullayev. – Т.: Zabarjad media, 2023.
6. Lutfiy: g'azallar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. – Т.: Akademnashr, 2020.
7. Yoriyeva, U. N. (2023). Relationships between humans and animals. Confrencea, 8(1), 123-126.
8. O'roqova N. O'zbek she'riyatida kapalak obrazi talqini //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
9. Yoriyeva, U. N. (2023). The originality and genesis of animal symbolism in poetry. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.
10. Yoriyeva, U. N., & Narzulloyeva, M. L. (2024). Interpretation of the Image of Animals in Abdulla Oripov's Poetry. International Journal of Formal Education, 3(4), 40-45. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2478>
11. <https://uz.wiktionary.org/wiki/musohib>

ifodalab kelishini ta'kidlaydi. Nafs – inson ruhiyatining qashshoqlashuvi bo'lib, bunda moddiy dunyoga mehr ortadi, o'tkinchi ne'matlarga moyillik kuchaya boradi. Buning oldi olinmasa, inson ma'naviyati tanazzulga yuz tutadi, ruhiy olami qovjiraydi.

Navoiy talqiniga ko'ra, borliq olamdagi eng kuchli yirtqich hisoblanuvchi sherni yengish juda qiyin. Ayniqsa, bu ishini inson zoti amalga oshirishi amri maholdir. Ammo shunday bir hayvon borki, u yirtqich sanalmasa-da, vahshiylardan ming karra xavfliroqdir. Bu – nafs iti. Uni yengish, mag'lub qila olish uchun juda katta ruhiy tayyorgarlik lozim. Ma'naviy kamolotning bir qancha bosqichlaridan muvaffaqiyatli bir yo'sinda oshish nafs itini xorlik sari itqitishda qo'l keladi.

Shoironing "Labingdin xasta jonkim bo'ldi betob..." g'azalida mazkur hayvon vositasida pastkash kimsalar timsoli gavdalanirilgan:

Falak boshingga qoplab it terisin,

Sen oni jahldin deb kishu sinjob.

Ajab yo'q, odamiylig'ni unutsang,

O'zungni bo'yla it charmda asrob [5].

Ushbu ikki baytda itdan tashqari kish (qunduzning bir turi) hamda sinjob (silovsin) singari hayvonlar nomi tilga olingan. Badiiy g'oya mazmun-mohiyatining kitobxonga to'la yetib borishi, anglanishi oson bo'lishi uchun ulardan yordamchi timsol sifatida foydalanilgan.

Yuqoridagi baytlar talqinidan ko'rinadiki, lirik qahramon yorga murojaat qilib, taqdiri azal boshiga qiyin kunlarni solganda, o'tkinchi dunyoga daxldor masalalarni bahona qilib, odamiylikdan chiqmasligini ta'kidlaydi. Buni, go'yoki, o'zini "it charmda asrob" (chetga olib!), ya'ni bechorasifat, xo'rangan kabi ko'rsatib, insoniylik chegarasini buzishga mengzash mumkin. Navoiyning o'z davrida ilgari surgan bunyodkorlik g'oyalaridan biri odamiylik, insonparvarlik bo'lgan. Bu tushunchalar ijodkor lirikasining bosh tamoyili sifatida hamisha markazda bo'rtib ko'ringan.

It obrazi Bobur ijodida ham g'oyaviy rang-baranglik kasb etadi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning ma'shuqa qo'riqchisi sifatidagi roli alohida ajralib turadi:

Yor iti, qichqirma gar Bobur desa holin sanga,

Naylayin bu g'urbat ichra sendin o'zga yo'q kishim [2].

Odatdagidek, mazkur baytda oshiq ma'shuqadan mehr, vafo ko'rmagani tufayli dardini uning itiga aytgisi, ko'nglidan kechirganlarini u bilan bo'lishgisi keladi. Yor xayoli bilan shu qadar band bo'lganligidan ko'ziga faqat uning atrofidagi narsalar, masalan, doim ma'shuqa bilan yonma-yon bo'luvchi itgina ko'rinadi, xolos. Bunda itga nisbatan do'stlik, birodarlik tuyg'ularini tuyadi. Ushbu motiv mumtoz lirikamizning keyingi davrlarida ham an'ana sifatida davom etganini ko'rishimiz mumkin:

Nolalarkim, men chekarman dam-badam ko'ying aro,

Itlaring ul sho'rdin bedor erur afg'on bila [2, 12].

Ayonki, Munisning ushbu betakror misralari bundan mustasno emas. Bu o'rinda sho'r so'zi oshiqning ma'shuqa dardida chekkan nolalari – ko'z yoshlarini anglatadi. Ma'shuqaning iti oshiqning ko'z yoshlari, faryodi sababidan doim bedor, bezovta. Ammo u o'z vazifasini mas'uliyat bilan ado qiladi. Yorning eshigini qo'riqlaydi. G'azallarda uchlik mavjud: oshiq raqib, ma'shuqa. Raqib obrazi ishtirok etmagan ko'pgina g'azallarda it obrazi uning o'rmini to'ldirib turadi. Xullas, mazkur hayvon mumtoz lirikamizning obrazlar olamini boyitganligi bilan diqqatga sazovordir.

**Xulosa va takliflar.** Olamning badiiy manzarasini ifodalashda turli obrazlar qatori hayvon timsollaridan ham faol qo'llanib kelingan. Mazkur obrazning genezisi, shakllanish davri folklor asarlariga borib taqaladi. Bu an'ananing davomiylikni mumtoz she'riyatimizga oid janrlarda ham ko'rishimiz mumkin. Binobarin, ta'kidlash joizki, faunistik obrazlar mumtoz lirikada an'anaviyligini saqlagan holda novatorlik ham kasb etdi. O'zining badiiy estetik vazifasini maromiga yetkazib bajardi.